



CALENDULA OFFICINALIS L.NING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA
DORIVORLIK AHAMIYATI

Autxonov B
Ashirova Sh.G'

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada *Calendula officinalis* L.ning ayrim biologik xususiyatlari, dorivorlik va manzarali o'simlik sifatida ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, dunyo bo'yicha tarqalgan turlari va kimyoviy tarkibi adabiyotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Dorivor o'simlik, flavonoidlar, antibakterial, antifungal.

Annotation: This article presents information on some of the biological properties of *Calendula officinalis* L. and its importance as medicinal and ornamental plant. Also, the types and chemical composition distributed around the world were analyzed based on literature.

Key words: Medicinal plant, flavonoids, antibacterial, antifungal.

Аннотация: В статье приведены сведения о некоторых биологических свойствах *Calendula officinalis* L. и ее значении как лекарственного и декоративного растения. Также на основе литературных данных был проведен анализ типов и химического состава, распространенных по всему миру.

Ключевые слова: Лекарственное растение, флаваноиды, антибактериальное, противогрибковое.

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha dorivor o'simliklarni yetishtirish, saqlash va ulardan keng foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizda ham yovvoyi holda tarqalgan dorivor o'simliklarning turlarini aniqlash, madaniylashtirish va ulardan dori-darmon tayyorlash masalalariga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Shuningdek, hukumat qarorlari va farmonlarida ham dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda ulardan keng foydalanish bo'yicha qilinishi kerak bo'lgan ishlar yoritib berilgan.

Xususan, yurtboshimizning "Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 20-maydagi PQ-251-son qaroriga muvofiq dorivor o'simliklarga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu boisdan *Calendula officinalis* L.ning ayrim biologik xususiyatlari, dorivorlik va manzarali o'simlik sifatida ahamiyati bo'yicha tadqiqotlar olib bordik.

Calendula officinalis L. - mahalliy tilda tirnoqgul deb nomlanadi. Bu dorivor o'simlik qoqio'tdoshlar (Asteraceae) oilasiga mansub bir yillik, bo'yi 30-50smga yetadigan o't o'simlik bo'lib, Vatani O'rta yer dengiz bo'yi mamlakatlari hisoblanadi [1]. U bazi mamlakatlarida Pot Marigold deb ham nomlanadi.

Calendula officinalis L.ning nomi lotincha "Calend" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'simlikning uzoq gullash davri tufayli har oyning birinchi kuni degan ma'noni anglatadi [2].



Hozirgi vaqtda dorivor o'simlik sifatida Hindiston, Xitoy, Yevropa va Buyuk Britaniyada keng foydalaniladi [2]. O'zbekistonda uni manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi. Mevasi pista meva, Iyun oyidan boshlab, kech kuzgacha gullaydi. Tabobatda uning to'pguli ishlatiladi. Qonni tozalovchi, tinchlantiruvchi, qon bosimini tushiruvchi vosita [1].

Calendula officinalis L.ning yer yuzida quyidagi tur va navlari keng tarqalgan:

- 1) *C.officinalis*
- 2) *C.officinalis* "Snow Princess"
- 3) *C.officinalis* "Fiesta Gitana Group"
- 4) *C.officinalis* "Apricot Pygmy"
- 5) *C.officinalis* "Kinglet Mix"
- 6) *C.officinalis* "Dandy"
- 7) *C.officinalis* "Daisy Mixed"
- 8) *C.officinalis* "Indian Prince"
- 9) *C.officinalis* "Orange King"

Dorivor tirnoqgul O'zbekistonda introduksiya asosida keltirilgan o'simlik bo'lib, ixtisoslashtirilgan xo'jalikda sinovdan o'tkazilgan (Toshkentda). Keyin esa yetishtirish imkoniyati mavjudligi aniqlandi. Shuningdek, 1928-yilda Namangan viloyatining Pop tumanida Ibn Sino nomli dorivor o'simliklar o'stirishga ixtisoslashtirilgan o'rmon xo'jaligi tashkil qilindi. Bu xo'jalikda dorivor tirnoqgul o'stirilgan, ulardan yig'ilgan dorivor mahsulotlar, O'zbekiston dorixonalarini ta'minlash va qayta ishlash uchun Chimkent kimyo-farmasevtika zavodi va boshqa korxonalarga jo'natilgan [1].

Dorivor tirnoqgul o'simligini ekilgandan gullash davri boshlanguncha 70 kun bo'ladi, shunga ko'ra ularni mart-aprel oylariga ekish kerak. Ularning urug'lari Katta urug'lar guruhiga mansub bo'lib, 1 gr og'irlikdagi massada 100 dona urug' bo'ladi. Dorivor tirnoqgul o'simligi asosan urug'i orqali ko'payadi [3].

*Calendula officinalis*ning reproduktiv hamda vegetativ organlarida bir qancha birikmalar mavjud. Xususan, gullarida-terpenoidlar, flavonoidlar, uchuvchi yog' va kumarin moddasi, barglarida – xinonlar ildizida ham- terpenoidlar uchraydi. O'simlikning asosiy faol tarkibiy qismlariga triterpendiol efirlari, saponinlar, flavonoidlar, rutin kabi moddalar kiradi. O'simlikning gul ekstraktlari OIV ga qarshi ta'sirga ega.

*Calendula officinalis*larning ekstraktlari leykemiya, saratonga qarshi, gastrit, kolit, o'n ikki barmoqli ichak yarasi qon ketishini davolash uchun ishlatiladi. Shuningdek, bu o'simlik antibakterial va antifungal xususiyatga ega bo'lib, In-vitro sharoitida gullarning efir moyi, stafilakoklar, batsillalar (*Pseudomonas aeruginosa* va *escherichia coli*) o'sishini to'xtatadi [2].

Calendula officinalis L. tarkibidagi orofaringeal mukoza - og'iz shilliq qavatining yallig'lanishi, atrofiya, shish, eritema (terining qizarishi shishishi) kasalliklarini davolaydi. Bu o'simlik eritmasida og'izni yuvish hech qanday nojo'ya ta'sirlarsiz (qusish, ko'ngil aynishisiz) amalga oshadi [3].

Umuman oldganda *Calendula officinalis* L. dorivor va manzarali o'simlik sifatida har tomonlama tadqiq qilinishi kerak bo'lgan istiqbolli o'simlik bo'lib, undan turli dorilar sintezida va turli kasalliklarni davolash uchun ishlatish mumkin.



Chunki, *Calendula officinalis* L. tarkibida mavjud bo'lgan moddalarning bevosita biologik faolligi tufayli uni tabiiy dori sifatida ishlatish imkonini beradi.

Shu bilan birgalikda gullari kech kuzgacha ochilib turadigan manzarali o'simlik sifatida shahar va qishloqlarimizni ko'kalamzorlashtirish uchun ham tavsiya etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Islomov B.S, Hasanov M.A. O'simliklar introduksiyasi. Samarqand. SamDU nashriyoti, 2022. -164 b.

2. R. John, Dr N Jan . Proceedings of the Indian National science Academy . University of Kashmir . August 2017-782 b

3. Mukumov I., Zoirova P., Hasanov M., Bahriyev M. Bir yillik manzarali o'simliklarni issiqxona sharoitida ko'paytirish, "Oziq-ovqat xavfsizligi global va milliy muammolar VII Xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjuman ilmiy ishlari to'plami. Samarqand, 2025. –B.79-80